

JINOYAT ISHI QO`ZG`ATISH TUSHUNCHASI VA MOHIYATI

Toshkent shahar Advokatlar palatasi "AHIL ADVOKATLAR XIMOYASI"

Advokatlar xaya 'ati advokati

Akramov Behzod Azamat o`g`li

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada rivojlanib borayotgan mamlakatimizdagi jinoyat protsessida insonlarning huquq va erkinliklarining davlat himoyasida ekanligi, jinoyat ishini qo`zg`atish bosqichining mohiyati va uning ahamiyatini tushunishlari, jinoyat ishini qo`zg`atishning asoslari va sabablarini bir-biridan farqlash, jinoyat ishini qo`zg`atish, ishni qo`zg`atishni rad etish va materiallarni tergovga tegishliligiga qarab jo`natishning mohiyati, tahlili, qo`llanilishi uning xalqimiz ravnaqi, sog`lom turmush tarzi yaxshilashdagi o`rni va ularni rivojlantirish jihatlari ilmiy-amaliy nuqtai nazardan tahlil qilingan.

KALIT SO`ZLAR: jinoyat-protsessi, jinoyat-protsessi huquqi, jinoyat ishi, jinoyat ishini qo`zg`atish, jinoyat ishini qo`zg`atishni rad qilish, inson huquqlar va erkinliklari, Konstitutsiya, qonuniylik, aybsizlik prezumpsiyasi, "Xabeas korpus" instituti.

Акрамова Бехзод Азамат угули,

юрист Адвокатской палаты города Ташкента «AHIL ADVOKATLAR

XIMOYASI»

АННОТАЦИЯ: В данной статье в уголовном процессе нашей развивающейся страны права и свободы людей находятся под защитой государства, понимают суть и значение стадии возбуждения уголовного дела, выделяют основания и причины возбуждения уголовного дела. уголовное дело, возбуждение уголовного дела о характере, анализе и применении расстрела, отказ в возбуждении дела и направление материалов в зависимости от их значения для расследования. их роль и аспекты развития проанализированы с научной и практической точки зрения.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: уголовный процесс, уголовно-процессуальный закон, уголовное дело, возбуждение уголовного дела, отказ в возбуждении уголовного дела, права и свободы человека, Конституция, законность, презумпция невиновности, институт habeas corpus.

Tashkent City Bar Association "AHIL ADVOKATLAR XIMOYASI" lawyer

Akramov Behzod Azamat o`g`li

ABSTRACT: This article analyzes from a scientific and practical perspective the state protection of human rights and freedoms in the criminal process of our developing country, the essence and importance of the stage of initiating a criminal case, the differentiation of the grounds and reasons for initiating a criminal case, the essence, analysis, and application of initiating a criminal case, refusing to initiate a case, and sending materials based on their relevance to the investigation, its role in improving the prosperity and healthy lifestyle of our people, and aspects of their development.

KEY WORDS: criminal procedure, criminal procedure law, criminal case, initiation of criminal proceedings, refusal to initiate criminal proceedings, human rights and freedoms, Constitution, legality, presumption of innocence, the institution of "habeas corpus".

Jinoyat ishini qo‘zg ‘atish - jinoyat protsessining mustaqil bosqichi bo‘lib, unda jinoyat ishini qo‘zg‘atishga vakolatli bo‘lgan davlat organlari va mansabdar shaxslar jinoyat haqida kelib tushgan ariza va xabarlami qabul qilish, ko‘rib chiqish va hal etish orqali jinoyat ishini qo‘zg‘atish yoki qo‘zg‘atishni rad etish yoxud tergovga tegishliliqi bo‘yicha yuborish to‘g ‘risida qarorlardan birini qabul qiladilar[1].

Jinoyat ishini qo‘zg‘atish bosqichining mazmuni jinoyat haqida berilgan ariza yoki xabar yuzasidan bir qator holatlarni tekshirish va hal etish yuzasidan protsessual faoliyatni o ‘z ichiga oladi. Bunda jinoyat haqidagi ariza yoki xabar

JPKning 322-moddasida keltirilgan sabablarning qaysi biriga taalluqli; jinoyat haqidagi ariza yoki xabarda keltirilgan ma'lumotlarda jinoyat alomatlari mavjudmi; agarda jinoyat mavjud bo'lsa, u JKNing qaysi moddasi bo'yicha kvalifikatsiya qilinishi kerak; qaysi holatlar ariza yoki xabarda keltirilgan faktlarni tasdiqlaydi; tergovga qadar tekshiruv jarayonida JPKning 329-moddasi[2]da keltirilgan qaysi tergov va protsessual harakatlarni o'tkazish lozim; ariza yoki xabar kelib tushgan organ yoki mansabdor shaxs jinoyat ishini qo'zg'atish haqidagi masalani hal qilish vakolatiga egami yoki mavjud materiallar tergovga tegishliligi bo'yicha yuborilishi kerakmi; jinoyat ishini yuritishni istisno etadigan holatlar (amnistiya akti, jabrlanuvchi ariza berma-ganligi) mavjudmi; jinoyat ishi qo'zg'atilgandan so'ng surishtiruv yoki dastlabki tergov o'tkazishni kimga topshirish lozim; jinoyat faqat jabrlanuvchining shikoyati bo'yicha qo'zg'atiladigan (JPKning 325-m.) yoki yarashilganligi munosabati bilan tugatiladigan jinoyatlar (JKNing 66'-m.) turlariga kiradimi kabi savollar hal etilishi lozim

Jinoyat ishini qo'zg'atish sababi deganda, JPKda belgilangan va o'zida tayyorlanayotgan yoki sodir etilgan jinoyat haqida m'a'lumot beradigan manbalar tushuniladi. Sababning mavjudligi ushbu organlarning jinoyat ishini qo'zg'atish zarurligi haqidagi masalani ko'rib chiqish majburiyatini yuzaga keltiradi. JPKning 322-moddasi 1-qismiga ko'ra, jinoyat ishini qo'zg'atish uchun quyidagilar sabab bo'lishi mumkin: 1) shaxslarning arizalari; 2) korxona, muassasa, tashkilot hamda jamoat birlashmalari va mansabdor shaxslar bergen xabarlar; 3) ommaviy axborot vositalarining xabarları; 4) jinoyat sodir etilganligini ko'rsatuvchi m'a'lumotlar va izlarni surishtiruv organi, surishtiruvchi, tergovchi, prokurorning bevosita o'zi aniqlashi; 5) aybini bo'yniga olish haqidagi arz sabab bo'ladi. Jinoyatchilikka qarshi kurashni amalga oshirayotgan davlat organlarining faoliyatida jinoyat ishini qo'zg'atishning eng ko'p tarqalgan sababi - shaxslarning arizalaridir. JPKning 324-moddasiga muvofiq, shaxslarning jinoyat to'g'risidagi arizalari yozma yoki og'zaki bo'lishi mumkin. JPKning talablariga asosan, yozma arizalar imzolangan bo'lishi kerak. Anonim - ya'ni imzosiz, qalbaki imzoli yoki uydirma shaxs nomidan yozilgan ariza jinoyat ishini qo'zg'atish uchun sabab bo'la olmaydi (JPKning 323-

m.). JPKning 113-moddasiga asosan, aybinibo‘ynigaolish to ‘g ‘risidagi arz ariza beruvchining o‘zi sodir etgan jinoyati to ‘g ‘risida u shu jinoyatni sodir etishda gumon qilinmasdan va unga ayblov e’lon qilinmasdan oldin bergen xabaridir. U ham ariza kabi og‘zaki yoki yozma shaklda bo‘lishi mumkin. Surishtiruvchi, tergovchi yoki prokuror og‘zaki xabami bayonnomada aks ettiradi, unga arz qiluvchining shaxsiga doir ma’lumotlar kiritiladi va unda arzning mazmuni birinchi shaxs nomidan bayon qilinadi. Bayonnomaga arz qiluvchi va surishtiruvchi, tergovchi yoki prokuror imzo chekadi.[3]

Tergovga qadar tekshiruv bosqichida ham qonuniylik vaadolatni ta’minalash ustidan nazorat mavjud bo‘lib, u ikkiga, ya’ni idoraviy va protsessual nazorat turlariga bo‘linishi mumkin. Idora- viy nazorat bevosita jinoyat ishini qo‘zg‘atish vakolatiga ega idora va mansabdor shaxslarning rahbarlari tomonidan JPKda ko‘rsatilgan va belgilab qo‘yilgan tartib asosida butun faoliyat jarayonida amalga oshiriladi. Protsessual nazorat esa jinoyat ishini qo‘zg‘atish davridan boshlab tegishli hududiy prokuratura idoralari tomonidan amalga oshiriladi[4].

Birinchidan, **jinoyat ishi qo‘zg‘atish** — bu jinoyat protsessining boshlanishi uchun zarur bo‘lgan huquqiy jarayon bo‘lib, davlat organlari (odatda, tergov organlari yoki prokuratura) tomonidan jinoyatga aloqador bo‘lgan shaxsga qarshi rasmiy tergov yoki sud jarayonini boshlashga asos yaratishdir. Jinoyat ishi qo‘zg‘atish — bu jinoyatni tekshirish, tergov qilish va sudda ko‘rish uchun huquqiy asos yaratadi. Jinoyat ishi qo‘zg‘atishning huquqiy asoslari va tartibi, O‘zbekiston Respublikasidagi **Jinoyat protsessual kodeksi** (JPK)da aniq belgilangan. Jinoyat ishi qo‘zg‘atish uchun quyidagi shartlar va me’yorlar mavjud.

Ikkinchidan, Prezident Shavkat Mirziyoyev sud qarorlarini qayta ko‘rish instituti takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim kodekslariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risidagi qonunlarni imzoladi.

O‘zgartirish va qo‘shimchalarning asosiy qismi sud tizimining qayta ixtisoslashuvi, sud qarorlarini qayta ko‘rish institutining takomillashtirilishi bilan bog‘liq.

Jumladan, «Jinoyat ishlari bo‘yicha sud qarorlarini qayta ko‘rish instituti

takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksiga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi qonun bilan kodeksga kiritilayotgan o'zgartish va qo'shimchalar asosan qator jihatlarda namoyon bo'lmoqda.

Jinoyat-protsessual kodeksiga kiritilgan yangi o'zgarishlarga ko'ra, shaxsning aybga iqrorlik to'g'risida kelishuv tuzilgan jinoyatlar bo'yicha jazo tayinlash, ko'rsatuvlarni oldindan mustahkamlab qo'yish, uning asoslari va tartibi, kelib tushgan jinoyat ishi bo'yicha sudyaning harakatlari ifodalab berilgan.

Sudya jinoyat ishini ayblov dalolatnomasi yoki ayblov xulosasi yoxud tibbiy yo'sindagi majburlov choralarini qo'llash haqidagi masalani ko'rib chiqish uchun ishni sudga yuborish to'g'risidagi qaror bilan qabul qilib olgach, quyidagi ajrimlardan birini chiqaradi: ishni sudlovga tegishliligiga ko'ra o'tkazish to'g'risida; ishni sudda ko'rish uchun tayinlash haqida; dastlabki eshituv o'tkazish to'g'risida.

Ajrim sudya tomonidan ish sudga kelib tushgan paytdan e'tiboran yetti sutkadan kechiktirmay qabul qilinadi. Bu muddat shu sudning raisi tomonidan ko'pi bilan uch sutkagacha uzaytirilishi mumkin.

Sudya ushbu Kodeks 395-moddasining birinchi qismida nazarda tutilgan masalalarni hal etishda jinoyat ishi bo'yicha har bir ayblanuvchiga nisbatan quyidagi holatlarni aniqlashi kerak: ish mazkur sudning sudloviga tegishlimi, ishning sud majlisida ko'riliishi uchun asoslar yetarlimi, surishtiruv va dastlabki tergov o'tkazish chog'ida ushbu Kodeksning talablariga rioya qilinganmi, ayblanuvchiga nisbatan ehtiyoj chorasi to'g'ri tanlanganmi, jinoyat oqibatida yetkazilgan mulkiy zararning o'rni qoplanishini ta'minlash choralar ko'riganmi, ayblov xulosasi yoki ayblov dalolatnomasi ushbu Kodeksning talablariga muvofiq tuzilganmi, dastlabki eshituv o'tkazish uchun asoslar bormi. Sud taraflarning iltimosiga ko'ra yoki o'z tashabbusi bilan jinoyat ishi bo'yicha dastlabki eshituv o'tkazadi. [5]

Uchunchidan, darhaqiqat, o'tgan yillar mobaynida milliy qonunchiligidizni xalqaro huquqning umume'tirof etilgan standartlariga muvofiqlashtirish, demokratik tamoyillar va xalqaro huquqiy talablarga to'liq javob beradigan huquqiy-me'yoriy hujjalalar qabul qilindi. Shu o'rinda, "Xabeas korpus"

institutining milliy qonunchiligidan o'z ifodasini topishi jinoiy ta'qib jarayonida shaxs huquqlarining sud tomonidan kafolatlanishi uchun mustahkam zamin bo'lib xizmat qildi.

Shuningdek, O'zbekiston tomonidan ratifikatsiya qilingan qator xalqaro hujjatlarda shaxsning daxlsizlik huquqlariga oid kafolatlar mustahkamlangan. Xususan, Inson huquqlari bo'yicha umumjahon deklaratsiyasining 12-moddasida "Hech kimning shaxsiy va oilaviy hayotiga o'zboshimchalik bilan aralashish, uy-joyi daxlsizligiga, uning yozishmalaridagi sirlarga yoki uning nomus va sha'niga o'zboshimchalik bilan tajovuz qilinishi mumkin emasligi, har bir inson xuddi shunday aralashuv yoki tajovuzdan qonun orqali himoya qilinish huquqiga egaligi" e'tirof etilgan.

Shu bilan birga, Fuqaroviylar va siyosiy huquqlar bo'yicha xalqaro paktning 17-moddasida "Hech kim o'zining shaxsiy va oilaviy hayotiga o'zboshimchalik yoki noqonuniy tarzda aralashishga, o'zining uy-joyi yoki yozishmalarini siri daxlsizligiga o'zboshimchalik yoki noqonuniy tarzda tajovuz qilinishiga yoki uning or-nomusi va sha'niga noqonuniy tajovuz qilinishiga duchor etilishi mumkin emasligi va har bir inson xuddi shunday aralashuv yoki tajovuzlardan qonun orqali himoya etilish huquqiga ega" ekani qayd etilgan.

Aynan ana shu xalqaro hujjatlarda belgilangan kafolatlarni ta'minlash maqsadida ham tintuv, telefon so'zlashuvini eshitib turish va mol-mulkni xatlash kabi tergov harakatlari ustidan sud nazorati qat'iy o'rnatilishi zarurdir. Chunki turar joy daxlsizligi egasining rozilgisiz uning turar joyiga kirishga, unga har qanday zarar yetkazishga hech kimning haqqi yo'qligini anglatadi. Ya'ni mulkdorning rozilgisiz uy-joyga kirish va tintuv o'tkazish faqat sudning qarori asosida amalga oshirilishi kerak.

Mol-mulkni xatlash borasida so'z ketganda aytish joizki, endilikda mulkdor faqat sudning qonuniy kuchga kirgan qarori asosidagina mulkidan mahrum etilishi mumkin. Bu bilan shu vaqtga qadar tergov doirasida mansabdor shaxslarning fuqarolarni mulk huquqidan mahrum etishga doir vakolatlari bekor qilinib, bu jarayon sud orqali amalga oshirilishi mustahkamlanmoqda. Mazkur norma qabul

qilinishi natijasida mulkdor har qanday holatda o'zining mulk huquqi buzilmasligi va undan asossiz mahrum etilmasligi kafolatlari belgilanadi.

Zero, davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek, "endi tergovchi jinoyatga aloqador deb, har qanday mulkni xatlab qo'ya olmaydi. Axir biz xususiy mulk daxlsizligini kuchaytirish bo'yicha ozmuncha harakat qilyapmizmi? Bundan buyon mulk huquqini cheklashga oid har qanday harakat faqat sud orqali bo'ladi".

Jinoyat ishlari yurituviga oid yana bir og'riqli masala bu — tergovning sifati masalasidir. So'nggi yillarda tergov sifati darajasini ko'tarish yuzasidan qator islohotlar amalga oshirildi. Lekin, afsuski, tergov xodimlari tafakkurida hali-hanuz shaxsni ayblash, har qanday holatda uni javobgarlikka tortishga erishish tergovning asosiy vazifasi, degan tushuncha mavjud. Vaholanki, davlatimiz rahbari qat'iy ta'kidlaganidek, "Tergov shaxsni ayblash uchun emas, jinoyatni fosh etish orqali haqiqatni aniqlash uchun ishlashi kerak". [6]

To`rtinchidan, Jinoyat ishi qo'zg'atishning asosiy shartlari jinoyatning sodir etilishi yoki sodir etilishi ehtimoli haqida aniqlik va dalillar bo'lishidir. Agar tergov organlari tomonidan quyidagi asoslar mavjud bo'lsa, jinoyat ishi qo'zg'atilishi mumkin: Jinoyatni aniqlashga imkon beradigan dalillar yoki jinoyatning sodir etilganini tasdiqlovchi shubhalar mavjud bo'lsa, jinoyat ishi qo'zg'atiladi. Jinoyat ishi qo'zg'atishdan oldin, jinoyat haqida ishni boshlashga asos bo'lgan dalillar to'planishi kerak. Bu dalillar guvohlarning ko'rsatmalari, ekspertiza xulosalari, jismoniy dalillar va boshqalarni o'z ichiga oladi. Agar sodir etilgan jinoyat og'ir yoki yengil bo'lishiga qarab, qo'zg'atilishi mumkin bo'lgan tergov ishining turini aniqlashda o'zgarishlar bo'lishi mumkin.

Jinoyat ishi qo'zg'atish jarayoni quyidagi tartibda amalga oshiriladi: Jinoyat ishi qo'zg'atish uchun huquqni muhofaza qilish organlariga ariza, shikoyat yoki ma'lumot kirishi kerak. Bu ariza jismoniy yoki yuridik shaxslar tomonidan, huquqni muhofaza qilish organlariga yuboriladi. Tergov organlari, ariza yoki shikoyatni tekshirib, jinoyat alomatlari mavjud bo'lsa, jinoyat ishi qo'zg'atiladi. Buning uchun tergovchi yoki prokuror jinoyatga aloqador bo'lgan har qanday holatni o'rganib, aniq dalillar to'playdi. Agar jinoyat ishi qo'zg'atilsa, tergov jarayoni boshlanadi.

Tergov organlari o'rganish va tekshirish jarayonini boshlashadi, guvohlar, shohidlar va boshqa dalillar yig'iladi, shuningdek, o'rganish uchun zarur bo'lgan boshqa choralar ko'rildi.

Jinoyat ishi qo'zg'atilishi mumkin bo'lgan holatlar quyidagi sabablar bilan bog'liq bo'lishi mumkin: Jinoyat qurbanlari yoki shohidlari tomonidan yozilgan arizalar va shikoyatlar asosida jinoyat ishi qo'zg'atilishi mumkin. Prokuratura, ichki ishlar organlari yoki boshqa davlat organlarining tekshiruvlari natijasida jinoyat ishi qo'zg'atiladi. Agar jinoyatni amalga oshirgan shaxsning ishtirok etganligini tasdiqllovchi dalillar mavjud bo'lsa, tergovchi yoki prokuror jinoyat ishi qo'zg'atadi.

Jinoyat ishi qo'zg'atilmasligi yoki rad etilishi mumkin bo'lgan holatlar ham mavjud. Bunga quyidagilar kiradi: **Dalillar yetarli emasligi:** Agar jinoyatni isbotlashga yetarli dalillar bo'lmasa, jinoyat ishi qo'zg'atilmasligi mumkin. **Jinoyat sodir etilmaganligi yoki vaqt o'tganligi:** Jinoyatning sodir etilmaganligi yoki jinoyatga aloqador bo'lgan voqeа uchun qonuniy vaqt o'tgan bo'lsa (ya'ni, jinoyat sodir etilganidan keyin belgilangan muddat o'tgan bo'lsa), jinoyat ishi qo'zg'atilmasligi mumkin. **Xolislik prinsiplari:** Agar dalillar va shikoyatlar asosida jinoyatning mavjud emasligi yoki ilgari ko'rsatilgan holatlar rad etilsa, jinoyat ishi qo'zg'atilmasligi mumkin.

Bu jinoyat protsessining boshlanishiga asos bo'ladigan, tergov organlari yoki prokuratura tomonidan amalga oshiriladigan huquqiy jarayon. Jinoyat ishi qo'zg'atilishi uchun zarur bo'lgan asoslar — jinoyat alomatlari, dalillar va protsessual me'yorlar bo'lib, bu jarayonda tergov organlari tomonidan muayyan protsessual tartibga rioya qilinishi kerak. Jinoyat ishi qo'zg'atishning noto'g'ri amalga oshirilishi esa huquqiy adolatsizlikka, masalan, aybsiz shaxsning ta'qib qilinishiga olib kelishi mumkin.

Beshinchidan, **Jinoyat ishi qo'zg'atishdagi kamchiliklar va xatolar** — bu jinoyat protsessining boshlanishi jarayonida yuzaga keladigan qonunbuzarliklar yoki noto'g'ri harakatlardir. Jinoyat ishi qo'zg'atish huquqiy protsessning muhim bosqichi bo'lib, unda yuzaga keladigan kamchiliklar va xatolar keyinchalik adolatli hukm chiqarilishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bunday xatolar ko'pincha

tergov organlari, prokuratura yoki boshqa huquqni muhofaza qilish organlarining befarqligi, xatosi yoki qonunlarga to'liq rioya qilmasligi tufayli yuzaga keladi.

Jinoyat ishi qo'zg'atish uchun zarur bo'lgan dalillar bo'lmasa yoki ular noto'g'ri talqin qilinsa, bu jinoyat ishi qo'zg'atilmasligiga yoki noto'g'ri qo'zg'atilishiga olib kelishi mumkin.

Dalillarni noto'g'ri baholash: Tergov organlari yoki prokuratura jinoyatni tasdiqlovchi dalillarni noto'g'ri baholagan holda ishi qo'zg'atish jarayonini noto'g'ri amalga oshirishi mumkin. Misol uchun, ba'zi dalillar, shubhalar yoki guvohlarning ko'rsatmalarini haddan tashqari qabul qilish, natijada jinoyat ishi qo'zg'atiladi, ammo keyinchalik bu dalillar ishonchli deb topilmaydi.

Dalillarning yetishmasligi: Agar jinoyat ishi qo'zg'atilishidan oldin zarur bo'lgan dalillar to'plama bo'lmasa, tergov jarayoni va ishi bekor qilinishi mumkin. Bunday holatlarda, jinoyat ishi qo'zg'atilishi asossiz bo'lishi mumkin.

Ba'zan jinoyat ishi qo'zg'atilishi uchun barcha shartlar mavjud bo'lmasa, ya'ni jinoyat sodir etilmagan bo'lsa yoki jinoyatning alomatlari aniqlanmasa, tergov organlari noto'g'ri qaror qabul qilishadi. Agar jinoyatning sodir etilmaganiga yoki mavjud emasligiga ishonch hosil qilinmasa, tergov organlari noto'g'ri ishi qo'zg'atishlari mumkin. Bu holatda, ba'zi ishonchsiz ma'lumotlar asosida jinoyat ishi qo'zg'atiladi.

Jinoyat ishi qo'zg'atish uchun qonuniy muddatlar belgilangan. Agar belgilangan muddatlar o'tilgan bo'lsa, jinoyat ishi qo'zg'atilmaydi. **Konsolidatsiya muddati:** Jinoyat ishi qo'zg'atishning bir qismi vaqt bilan chegaralangan bo'lishi mumkin. Agar jinoyatning sodir etilishiga ko'p vaqt o'tgan bo'lsa, qonun asosida jinoyat ishi qo'zg'atilmasligi mumkin. Masalan, ba'zi jinoyatlar uchun, jinoyat sodir etilganidan so'ng ma'lum bir muddat o'tganidan keyin, ishi qo'zg'atishning iloji yo'q.

Oltinchidan, tergov yoki prokuratura organlari tomonidan jinoyat ishi qo'zg'atishni rad etish jarayonida ham xatolar yuzaga kelishi mumkin. **Jinoyatga oid dalillarning etarli darajada ko'rib chiqilmasligi:** Ba'zida tergov organlari tomonidan jinoyat ishi qo'zg'atishni rad etishda barcha dalillarni to'liq ko'rib

chiqmaslik yoki ular o'rtasidagi bog'liqlikni hisobga olmaslik natijasida xatolikka yo'l qo'yiladi. **Noqonuniy rad etish:** Agar tergovchi yoki prokuror jinoyat ishi qo'zg'atishdan o'z huquqiga ko'ra rad etsa, bu noqonuniy ravishda amalga oshirilgan bo'lishi mumkin. Masalan, ba'zi holatlarda, jinoyat alomatlari bo'lishiga qaramay, tergov organi ishi qo'zg'atishni rad etishadi.

Tergov jarayonida tergov organlarining ishtiroki va xatolari natijasida jinoyat ishi qo'zg'atilmasligi yoki noto'g'ri amalga oshirilishi mumkin. **Tergovchi yoki prokurorning tarafkashligi:** Tergov organlarining ba'zan jinoyat ishini yanada chuqur o'rganmasligi, yoki biror tomonning manfaatlariga mos keladigan qarorlar qabul qilishi, jinoyat ishi qo'zg'atilmasligiga yoki noto'g'ri qo'zg'atilishiga olib keladi. **Jinoyatni noto'g'ri tasniflash:** Jinoyatning turini va uning ahamiyatini noto'g'ri tasniflash ham xatolarga olib keladi. Ba'zan jinoyatning sodir etilishi katta jazo talab qilishi mumkin, ammo noto'g'ri tasniflash tufayli jinoyat ishi qo'zg'atilmasligi yoki unchalik jiddiy qaror chiqmasligi mumkin.

Jinoyat ishi qo'zg'atish jarayonidagi noaniqliklar, tergov organlarining uzoq davom etgan tekshiruvlari va harakatlarning tartibsizligi jinoyat ishi qo'zg'atilmasligiga yoki noto'g'ri qo'zg'atilishiga olib kelishi mumkin. **Jinoyat ishi qo'zg'atishdagi qiyinchiliklar:** Ba'zi jinoyat turlari yoki holatlar boshqalariga qaraganda ancha murakkab bo'lishi mumkin. Misol uchun, o'g'irlik yoki firibgarlik kabi jinoyatlar bo'yicha dalillarni to'plash qiyin bo'lishi mumkin, bu esa jinoyat ishi qo'zg'atish jarayonini kechiktiradi yoki noto'g'ri amalga oshiriladi. Ba'zi holatlarda, tergovchilar yoki prokurorlar, noto'g'ri shaxsni ayblashlari mumkin. Bu jinoyat ishi qo'zg'atish jarayonida yuzaga keladigan kamchiliklardan biri hisoblanadi. **Noto'g'ri shaxsga qarshi ishi qo'zg'atish:** Jinoyat ishi qo'zg'atishidan oldin, jinoyatni sodir etgan shaxsni aniqlash muhimdir. Ba'zan noto'g'ri shaxsga ayblov qo'yish, masalan, guvohlarning noto'g'ri ko'rsatmalari asosida jinoyat ishi qo'zg'atiladi. Bu esa adolatsiz hukmlarga olib keladi.

Jinoyat ishi qo'zg'atishdagi kamchiliklar va xatolar, tergov organlarining befarqligi, qonunchilikka to'liq rioya qilmaslik, dalillarning yetarli bo'lmasligi yoki noto'g'ri baholanishi kabi sabablar tufayli yuzaga kelishi mumkin. Bunday xatolar

jinoyat ishi qo‘zg‘atish jarayonining noto‘g‘ri amalga oshirilishiga, shuningdek, aybsiz shaxslarning ta'qib qilinishiga yoki jinoyatning adolatli tekshirilmasligiga olib kelishi mumkin. Tergov organlari va prokuratura xodimlari jinoyat ishi qo‘zg‘atish jarayonida barcha qonuniy me'yorlarga to‘liq rioya qilishi zarur.

Xulosa qilib aytganda, yurtimizda inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilish, buzilgan huquqlari va erkinliklarini qayta tiklash sohasida jinoyat-protsessual kodeksida ko`rsatilgan bo`lib, jinoyat ishini qo‘zg‘atish bosqichiga doir masalalarining jinoyat-protsessual va tarmoq qonun hujjatlarida mustahkamlanishiga oid masalalarni ko‘rib chiqishlari; qiyosiy-huquqiy tahlil o‘tkazib, jinoyat ishlarini yuritishda sodir bo‘lgan yoki tayyorlanayotan jinoyat haqida ariza yoki xabar yuzasidan surishtiruvchi, tergovchi, prokuror JPKda belgilangan tergovga qadar tekshiruv o‘tkazish orqali jinoyat ishini qo‘zg‘atish, ishni qo‘zg‘atishni rad etish yoki materiallarni tergovga taalluqliligi bo‘yicha yuborish to‘g‘risida qaror qabul qilishning protsessual tartibida yuzaga kelgan xatolarni minimallashtirib, huquqiy tizimning ishonchlilagini saqlab qolish va yana ham takomillashtirish kerak.

Manba va adabiyotlar ro`yxati:

[1] O‘zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi. Toshkent Davlat Yuridik Universiteti. JINOYAT-PROTSESSUAL HUQUQI (yuridik texnikumlar uchun darslik) Toshkent – 2021, 125-126-bet.

[2] O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi.

[3] O‘zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi. Toshkent Davlat Yuridik Universiteti. JINOYAT-PROTSESSUAL HUQUQI (yuridik texnikumlar uchun darslik) Toshkent – 2021, 126-127-bet.

[4] O‘zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi. Toshkent Davlat Yuridik Universiteti. JINOYAT-PROTSESSUAL HUQUQI (yuridik texnikumlar uchun darslik) Toshkent – 2021, 127-128-bet.

[4] *SUD-HUQUQ TIZIMIDAGI STRATEGIK ISLOHOTLAR INSON MANFAATLARI UCHUN XIZMAT QILMOQDA. «Taraqqiyot strategiyasi»*

Yangi O'zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o'rni va rivojlanish omillari

markazi, bo'lim boshlig'i Nilufar NODIRXONOVA. Elektron resurs:
<https://strategy.uz/index.php?news=1442&lang=uz>

[5] Dastlabki eshituv – qonunchilikda yangi tushuncha... Toshkent shahar sudi jinoyat ishlari bo'yicha sudlov hay'ati sudyasi Elza Shamsutdinova. Elektron resurs: https://uza.uz/oz/posts/dastlabki-eshituv-qonunchilikda-yangi-tushuncha_249004

[6] Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi. Inson huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish. yuridik fanlar doktori, professor Mirzayusuf Rustamboev. Elektron resurs: <http://nhrc.uz/oz/news/m9674>